

**MILLIY VALYUTADAGI «FOYDALI» MUDDATLI BANK OMONATI__-sonli
SHARTNOMASI**

_____sh.

“ _____ ” _____20__y.

“Tenge Bank” Aksiyadorlik tijorat banki, bundan buyon matnda – “Bank” deb yuritiladi, 20__yil «____»_____dagi «____»-sonli Ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi _____ nomidan bir tomondan va _____, bundan buyon matnda – “Omonatchi” deb yuritiladi, _____ nomidan ikkinchi tomondan, birgalikda esa – “Taraflar” deb yuritiladi, quyidagilar to‘g‘risida mazkur Shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Omonatchi _____ (*summasi harflar bilan yoziladi*) miqdorida milliy valyutadagi pul summasini (bundan buyon matnda – “Omonat”), shuningdek mazkur shartnomaning amal qilish davri mobaynida kiritilgan qo‘shimcha badallarni 20606 _____-sonli muddatli depozit hisobvarag‘iga joylashtirish uchun topshiradi, Bank esa ularni qabul qilish majburiyatini oladi hamda qayd etilgan Omonat summasiga qo‘shimcha badallarni kiritish, omonat summasidan qisman yechib olish imkoniyati bilan, shuningdek hisoblab yozilgan foizlarni mazkur shartnomada belgilangan shartlarda va tartibda qaytarish majburiyatini oladi. Mazkur shartnoma Bankka omonat summasi kelib tushgan kundan e‘tiboran tuzilgan hisoblanadi.

1.2. Mazkur Shartnomaning tuzilganligi va omonatlarga pul mablag‘lari to‘langanligi yozma xujjatlar (kirim kassa orderi/memorial order) bilan o‘rnatilgan tartibda tasdiqlanadi.

1.3. Shartnoma _____ dan _____ gacha **13 oy** muddatga tuziladi.

2. OMONAT SHARTLARI

2.1. Omonat summaları hisobini yuritish maqsadida Omonatchiga № 20606 _____-sonli «Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari» hisob varag‘i ochiladi. Omonatchining ishtirokida, uning arizasi asosida, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq Omonatchi tomonidan shaxsini tasdiqlovchi hujjat taqdim qilingan holatda hisob varaq ochiladi.

2.2. Omonat shartlari:

- omonat turi – muddatli;
- foiz stavkasi – yillik **23%**;
- omonat muddati – **13 oy**;
- minimal omonat summasi – 100 000 000 (yuz million) so‘m;
- maksimal omonat summasi cheklanmagan;
- qo‘shimcha badal – nazarda tutilgan;
- qisman olish (asosiy summa) – nazarda tutilgan, bunda omonat qoldig‘i ushbu Shartnomada belgilangan minimal omonat miqdoridan kam bo‘lmasligi kerak;
- foizlarni kapitalizatsiyasi – nazarda tutilmagan;
- omonat bo‘yicha muddatini uzaytirish (prolongatsiya) nazarda tutilmagan.
- hisoblangan foizlarni to‘lab berish tartibi- Omonatchining ochilgan «20206» -sonli talab qilib olinguncha hisob varag‘iga avtomatik tarzda, har oyda o‘tkaziladi.

2.3. Mazkur shartnomaga asosan omonatchiga ochilgan bank hisobvaraqlari shartnomaning amal qilishi tugaganidan so‘ng (omonat qoldiqlari mavjud bo‘lmagan holatda) yopiladi.

2.4. Omonatga pul mablag‘lari bevosita Omonatchining uzi tomonidan yoki uning qonuniy vakili tomonidan naqd pul shaklida ham, naqd pulsiz shaklda: ya‘ni plastik kartadan, shuningdek boshqa omonat hisob varaqlaridan yechib olish yo‘li bilan ham kiritilishi mumkin.

2.5. Omonatning naqd pul shaklidagi badali to‘lanishi Kirim kassa orderi asosida amalga oshiriladi, naqdsiz

ko'rinishdagi pul mablag'larini kirim qilishga esa Omonatchining uzi tomonidan yoki uning qonuniy vakili tomonidan taqdim etilgan yozma arizasi asos bo'ladi.

2.6. Omonat bo'yicha foizlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq har kuni hisoblanadi. Bunda, bir yildagi kunlar soni hisob-kitob soni sifatida 365 kun qabul qilinadi.

2.7. Omonat summasi bo'yicha foizlar bank tomonidan kelib tushgan kundan keyingi kundan boshlab, uni Omonatchiga qaytarish yoki boshqa sabablarga ko'ra Omonatchining hisobvarag'idan yechib olishdan oldingi kungacha hisoblanadi. Bank omonatchining hisobvarag'i xatlanganligi va/yoki uning hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalar to'xtatilganligi sababli ushbu hisobvaraqdagi mablag'lardan foydalana olmagan davrda foizlar hisoblanmaydi.

2.8. Omonat qisman yechib olinganda (asosiy summa), qisman yechib olingan kundan boshlab foizlar Omonat bo'yicha foiz stavkasi o'zgarmagan holda, Omonatning haqiqiy qoldig'i bo'yicha hisoblanadi. MBX tizimida qisman yechib olish (asosiy summadan) Tenge Bankda ochilgan hisob yoki bank kartasiga amalga oshiriladi. Shu bilan birga, pul mablag'larini boshqa banklarda ochilgan hisob raqamlariga yoki bank kartalariga keyingi o'tkazish Bankning amaldagi tariflari bo'yicha olinadi.

2.9. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligining (30, 366 va 382-moddalar) talablariga muvofiq, soliq rezidenti maqomiga ega bo'lmagan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari – Bank omonatchilardan to'lovlar manbai bo'yicha soliq to'lovlarini depozit bo'yicha to'langan foizlar (daromadlar) summasidan keyinchalik byudjetga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiradi

2.10. Omonat yopilganida asosiy summa, qo'shimcha badallar, hisoblab yozilgan foizlar avtomatik ravishda Omonatchining 20606 «Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari» hisobvarag' idan Omonatchining talab qilib olguncha saqlanadigan «20206_____» depozit hisobvarag'iga o'tkaziladi. 20206 «Talab qilib olguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'i»da gi mablag'lar qoldig'iga foizlar hisoblab yozilishi talab qilib olguncha saqlanadigan omonat shartlari asosida amalga oshiriladi.

2.11. Omonat muddatining tugashi tufayli qaytarish kuni dam olish yoki bayram (ishlanmaydigan) kunlariga to'g'ri kelgan holatda, omonatning berilishi dam olish yoki bayram (ishlanmaydigan) kunlaridan keyingi birinchi ish (bank) kunida amalga oshiriladi. Bu holda, dam olish kunlari yoki bayram kunlari (ishlamaydigan kunlar) uchun foizlar hisoblanmaydi.

2.12. Agar Omonatchi muddatli omonatni uning muddati tugagungacha qaytarishni muddatdan oldin talab qilsa, u omonatni olish rejalashtirilgan sanagacha bir oydan kechiktirilmagan holda Bankni o'z maqsadi haqida yozma shaklda ariza yuborish orqali xabardor qilishi shart.

2.13. Omonatchining talabiga binoan Omonatning to'liq summasi qaytarilgan taqdirda (muddatidan oldin qaytarish), Omonatchiga Omonatning haqiqiy miqdori hamda haqiqiy saqlangan muddat uchun hisoblangan foiz to'lovlari to'lab beriladi.

2.14. Bank tomonidan Omonatni berish, omonatga hisoblanagan foizlarni to'lash, shuningdek, Omonatchining yoki uning qonuniy vakilining barcha topshiriqlarini bajarishda uning shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etilgandagina amalga oshiriladi.

3. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1 Bank quyidagi majburiyatlarni oladi:

- Omonatchini muddatli omonat shartlari bilan tanishtirish hamda ularni batafsil tushuntirish;
- Mazkur shartnoma imzolanganidan so'ng omonatchiga hisobvaraqa ochish;
- Omonatchidan mazkur shartnomaning 1.1-bandida qayd etilgan miqdordagi pul mablag'larini qabul qilish va ularni 20606 «Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari» depozit hisobvarag'iga o'tkazish;
- Omonatchiga Omonatga pul mablag'larini kirim qilinganligini tasdiqlovchi (kirim kassa orderi/memorial order), belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatni berish;
- Mazkur shartnomaning 2.2, 2.6, 2.7, 2.9-bandlariga muvofiq foizlarni hisoblash va ularni to'lab berish;
- Depozit muddati tugaganidan so'ng, mazkur shartnomaning 2.2, 2.8, 2.9 va 2.10-bandlariga muvofiq omonati summasini (qo'shimcha badallar bilan birgalikda) qaytarish;
- Hisobvaraqlardagi mablag'larning tegishli saqlanishini va daxlsizligini ta'minlash, hisobvaraqlardagi mablag'larni xatlash yoki hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlardagina amalga oshirilishi mumkin;

- Norezident tomonidan ochilgan depozit bo'yicha to'langan foizlar (daromadlar) hisobidan to'lovlar manbaidan olinadigan soliq summasining to'g'ri hisoblanishi (soliq rezidenti maqomi bo'lmagan taqdirda), ushlab qolinishi va O'zbekiston Respublikasi byudjetiga o'tkazilishi O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga muvofiq amalga oshirilishini ta'minlash
- Bank sirini o'z ichiga oladigan ma'lumotlar himoyasini ta'minlash, omonatchi va omonat to'g'risidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga faqat amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda va tartibda taqdim qilish.

3.2 Bank quyidagilarga haqli:

- Omonatchidan shaxsini tasdiqlovchi hujjatni talab qilishga, ulardan nusxa/skan olish.
- Tegishli davlat organlarining ijro hujjatlari kelib tushgan holatda, omonatchining e'tirozlaridan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan tartibda choralar ko'rish (pul mablag'larini xatga olish, pul mablag'larini akseptsiz chegirib olish, hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib qo'yish va h.k.);
- Omonatchining omonat summasini muddatidan oldin talab qilgan taqdirda, omonat saqlangan haqiqiy saqlangan muddati uchun foizlarni to'laydi;
- Bankning belgilangan tariflariga asosan omonat hisobvarag'idagi pul mablag'lari bo'yicha bank operatsiyalari bo'yicha xizmat ko'rsatilganligi uchun komissiya haqini olish;
- Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni qonuniylashtirishga va terrorizmni mablag' bilan ta'minlashga qarshi kurashish maqsadida Bank omonatchidan hisobvaraqlar bo'yicha amalga oshirilayotgan operatsiyalar qonuniyligini tasdiqlaydigan va omonatchini identifikatsiya lash imkonini beradigan axborot va hujjatlar taqdim etilishini talab qilishga haqli;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida hamda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni qonuniylashtirishga va terrorizmni mablag' bilan ta'minlashga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalar ni to'xtatib qo'yish yoki ular ijro etilishini rad qilish.
- Bank yangiliklarini, shuningdek omonatchining hisobvarag'idan amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha axborotni SMS-xabarlar shaklida mazkur shartnomada ko'rsatilgan omonatchining mobil aloqa vositasi raqamiga yoki jo'natmalar sifatida ko'rsatilgan elektron pochta manzili ga yuborish. Omonatchi yuborilgan yozishmalar uchinchi shaxslar uchun ochiq bo'lishi bilan bog'liq barcha xavflarni o'z zimmasiga oladi
- Omonat va/yoki ortiqcha hisoblangan/to'langan foizlar badal miqdori bo'yicha Bank tomonidan omonatga pul mablag'lari noto'g'ri o'tkazilgan taqdirda, Mijoz bankka omonatga noto'g'ri kiritilgan mablag'lar miqdorida Mijozning qo'shimcha ko'rsatmasiz omonatdan pul mablag'larini olib qo'yish huquqini beradi va rozilik beradi (oldindan akseptlash orqali);
 - Bank omonat summasiga noto'g'ri va/yoki ortiqcha hisoblangan/to'langan foizlar mablag'lar to'lagan taqdirda, Mijoz Bankka Omonatga noto'g'ri kiritilgan mablag'lar miqdorida, Omonatdan mablag'larni hisobdan chiqarish to'g'risida mijozning (ilgari qabul qilingan roziligi) qo'shimcha ko'rsatmalarisiz, huquq va rozilik beradi.

3.3 Omonatchi quyidagi majburiyatlarni oladi:

- Mazkur muddatli bank omonati shartlari bilan tanishib chiqish va Omonat bo'yicha to'ldirilgan hujjatlarni o'z imzosi bilan tasdiqlash;
- Ushbu Omonat Shartnomasi shartlariga rioya qilish;
- Hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va boshqa vakolatli organlarning normativ hujjatlariga qat'iy muvofiqlikda amalga oshirish.
- Bank talabiga asosan mazkur shartnomaga muvofiq talab qilinadigan hujjatlar va ma'lumotlar ni taqdim qilish;
- Hisobvaraqlarga yangilish hisoblab yozilgan va/yoki hisobvaraqlardan yangilish chegirib olingan mablag'lar aniqlangan holatda, darhol bu haqda Bankka ma'lum qilish va hisobvaraqlardan tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish uchun foydalanmaslik;
- Omonatchi (yoki uning vakili) o'z manzili va/yoki telefon raqamlari, shu jumladan mobil telefon raqamlari, familiyasi, ismi yoki otasining ismi o'zgarganligi, shaxsini tasdiqlovchi hujjat almashtirilganligi haqida Bankni yozma shaklda xabardor qilish majburiyatini oladi.

3.4 Omonatchi quyidagilarga haqli:

- Omonat hisobvarag'iga pul mablag'lari qabul qilinganidan va o'tkazilganidan so'ng belgila ngan tartibda rasmiylashtirilgan (kirim kassa orderi/memorial order) xujjatni olish;
- Omonat amaliyotlari to'g'risida ma'lumotni SMS-xabarlar, Bankning mobil ilovasi, shuningdek, Bankning rasmiy www.tengebank.uz veb -saytida joylashtirilgan shaxsiy kabineti orqali olish;
- Omonat bo'yicha qo'shimcha badallarni amalga oshirishda bankning mobil ilovasi orqali omonat hisob varag'i bo'yicha masofadan turib xizmat ko'rsatishni amalga oshirish;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, omonatdan shaxsan foydalanish yoki notarial tasdiqlangan ishonchnomani rasmiylashtirish orqali uchinchi shaxslarga omonatdan foydalanish huquqini taqdim qilish;
- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, omonatchining boshqa huquqlaridan foydalanish.

4. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

- 4.1. Shartnoma shartlarini buzgan taraf shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari bajarilmaganligi yoki tegishli bajarilmaganligi uchun O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.
- 4.2. Omonatchi Omonat to'g'risidagi mobil telefon orqali, shuningdek, Bankning mobil ilova lari orqali qabul qilingan ma'lumotlarning xavfsizligi uchun javobgardir;
- 4.3. Taraflar shartnoma bo'yicha majburiyatlar to'liq yoki qisman bajarilmaganligi ya'ni favqulodda va oldini olib bo'lmaydigan vaziyatlar, tabiiy sharoitlari (ofatlar), O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari asosida majburiyatlar ijrosi keyinga qoldirilishi (moratoriy), tegishli munosabatlarni tartibga soluvchi qonun yoki boshqa hujjatning amal qilishi to'xtatib qo'yilishi oqibatida tegishli ijtiro qilish mumkin bo'lmagan holatlarda, bunday majburiyatlar to'liq yoki qisman bajarilmaganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

5. BOSHQA SHARTLAR

- 5.1. Omonatchi ushbu Shartnomani imzolab, Bank o'z faoliyatini amalga oshirishi ya'ni ushbu Shartnoma shartlarini bajarishi uchun (qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa maqsadlar uchun) Mijoz haqidagi har qanday shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash va foydalanishga rozilik beradi.
- 5.2. Mazkur shartnoma ijrosi bilan bog'liq da'volar Taraflar tomonidan o'zaro muzokaralar orqali hal qilinadi. Da'volarni muzokaralar orqali hal qilish imkoniyati bo'lmagan holatda, ular O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq sud tartibida hal qilinadi.
- 5.3. Omonatchi Bankning operatsion kuni muddatlari, Bank tomonidan omonatchilar bilan ishlash va ularga xizmat ko'rsatish vaqti haqida xabardor qilingan.
- 5.4. Bank yozma ariza asosida Bank tomonidan belgilangan tartibda faqat omonatchidan (yoki uning vakolatli vakilidan) hisobvaraqlar bo'yicha topshiriqni qabul qiladi..
- 5.5. Bank tomonidan omonatga qabul qilingan pul mablag'larining qaytarilishi O'zbekiston Respublikasining 2002-yil 5-apreldagi "Banklarda fuqarolarning omonatlarini himoya qilish kafolatlar i to'g'risida"gi 360-II-sonli qonuniga asosan O'zbekiston Respublikasi banklarida fuqarolarni ng omonatlarini kafolatlash fondi tomonidan kafolatlanadi.
- 5.6. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan holatlarda Taraflar O'zbekiston Respublikasini ng amaldagi qonun hujjatlari va omonat pasporti talablariga amal qiladilar.
- 5.7. Mazkur shartnoma Taraflarning har biri uchun bittadan ikkita nusxada o'zbek tilida tuzilgan. Shartnomaning har bir nusxasi bir xil yuridik kuchga ega.
- 5.8. Mazkur shartnomani imzolash orqali omonatchi ATB "Tenge Bank"ning "FOYDALI" milli y valyutada muddatli bank omonatining barcha shartlariga roziligini tasdiqlaydi.
- 5.9. Mazkur shartnoma omonatchi tomonidan o'z familiyasi, ismi, otasining ismini o'z qo'li bilan yozish orqali imzolanishi kerak.

6. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI:

«BANK»

«OMONATCHI»

«Tenge Bank» ATB

F.I.Sh.

Manzili: _____

Tug‘ilgan sanasi: _____

Tel.: _____

Fuqaroligi: _____

MFO: _____

Pasport ma'lumotlari:

STIR: _____

Seriyasi va raqami: _____

Berilgan sana va joyi: _____

Manzili: _____

(imzo)

Tel.: + (____) _____

Omonatchi imzosi va F.I.SH.:

(Omonatchi o‘z qo‘li bilan to‘ldiradi)